



Lexical peculiarities of the novel "Bygone Days" by Abdulla Qadiri

Elmurod TURSUNOV¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

stylistic devices,
expressive,
antithesis,
simile,
lexical peculiarities,
the purity of language,
characters.

ABSTRACT

In the novel "Bygone Days" by Abdulla Qadiri, the extraordinary mastery of revealing the compositional structure of the work through unique lexical and stylistic devices such as simile, synecdoche, antithesis and ellipsis serves to depict the social and historical conditions of that period, characters' inner world, and events with real and unique sensitivity in the reader's imagination. The article reveals the types of these artistic-stylistic and expressive means, their connotative meaning and the creation of subtle meaning through them using examples.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp115-120>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani leksikasining o'ziga xosligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

uslubiy vositalar,
ekspressiv,
antiteza,
o'xshatish,
leksik xususiyat,
til sofligi,
personajlar.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida o'xshatish, sinekdoxa, antiteza, ellipsis singari betakror leksik va uslubiy vositalarning asar kompozitsion tuzilmasining favqulodda yuksak mahorat bilan ochib berilishi kitobxon tasavvurida o'sha davr ijtimoiy va tarixiy sharoiti, qahramonlar ichki dunyosi hamda voqea-hodisalarning real va benazir hassoslik bilan tasvirlanishiga xizmat qiladi. Maqolada mazkur badiiy-uslubiy hamda tasviriy-ekspressiv vositalarning turlari, ularning konnotativ ma'no mundarijasi va ular vositasida hafif ma'no yaratilishi misollar yordamida ochib beriladi.

¹ Senior teacher, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

Лексические особенности романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

стилистические приёмы,
экспрессивность,
антитеза,
сравнение,
лексический признак,
чистота языка,
персонажи.

В романе «Минувшие дни» Абдуллы Кадири уникальные лексико-методические средства, такие как сравнение, синекдоха, антитеза, многоточие, с необычайно высоким мастерством раскрывают композиционный строй произведения, служащий описанию с реальной и неповторимой чуткостью в воображении читателя социально-исторических условий того времени, внутреннего мира героев и событий. В статье на примерах описаны виды этих художественно-стилистических и изобразительно-выразительных средств, их содержание коннотативного значения и создание с их помощью скрытого смысла.

KIRISH

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va takomillashuvida XX-asrning 20–30-yillarida yashab ijod qilgan milliy uyg'onish harakati namoyondalarining xizmatlari beqiyos. Ayni shu davrga kelib o'zbek milliy adabiyotida milliylik ruhidagi asarlar yaratila boshlandi. Zotan, milliy ruhdan kuch olmagan adabiyot badiiy-estetik ta'sirga ega bo'lmaydi. "Adabiyot, eng avvalo, milliy shakl-shamoyilga ega bo'lgan kishini va u orqali muayyan milliy xalqning hayoti, ruhiy va ma'naviy boyligini badiiy mujassamlashtirgandagina chinakam asar maydonga keladi." [1] O'tgan asr boshlarida jadid adabiyoti nasriy namunalaridan sanalgan Abdulla Qodiriyning o'zbek milliy romannavisligi gultojisi "O'tkan kunlar" romani ayni shunday asarlardandir. Milliylik bilan yo'g'rilgan, milliy ruhdan quvvat olgan mazkur roman hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida alohida o'rin egalladi. Maqola A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaning leksik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlanadi. Romanda milliy ruh va milliy tafakkurni hassoslik bilan tarannum etilgani, undagi voqeylikning o'zbek milliy tafakkur mezonlariga tayanib ifodalangani, milliylikni favqulodda yuksak mahorat bilan namoyon etilishi, davr tarixiy-ijtimoiy muhitini haqqoniy aks ettirishi hamda asosiy qahramonlar esa milliy obraz darajasiga olib chiqilgani uning badiiy-g'oyaviy jihatdan benazir asar ekanidan dalolat bersa, unda qo'llanilgan leksemalar, so'z birikmalari va frazeologik birliklar bilan bog'liq leksik xususiyatlari o'zbek adabiy tilining lisoniy imkoniyatlari nechog'lik boy ekanidan darak beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adib romanda personajlar nutqini xoslashtirish (ideallashtirish) maqsadida ularning kasbi-kori, turmush tarzi, tafakkur quvvati va ruhiy kechinmalariga mos leksik birliklar va lisoniy vositalardan foydalanadi. Asarda qo'llanilgan leksik va frazeologik birliklarni quyidagicha turkumga ajratib tahlilga tortish mumkin:

a) O'zbek adabiy tiliga boshqa tillardan tillardan o'zlashgan neologizmlar.

Mazkur neologizmlar asosan rus tilidan o'zbek tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilining morfologik va talaffuz qoidalariga moslashgan, ijtimoiy o'zgarishlar natijasida tilimizga kirib kelgan hisoblanadi. Masalan, asarning "Hasanalining hiylasi" nomli faslida shunday jumlaning uchratilishi mumkin, "Ammo qizig'i shundakim, bizni dunyo baxti kutkanda, bizga saodat bashorati berilganda nega biz o'lum kutkandagi holga tushamiz va uzviy

tashkilotimiz (o'rganizmamiz) birinchidagi holatni kechiradir?". Muallif **o'rganizmami** [2] (tashkilotimiz) leksemasi orqali o'zbek tiliga rus tilidan endigina o'zlashayotgan so'z va so'z birikmalarini keltiradi. *Gumbazning qarshisidagi ikki tup keksa chinorning iskelet kabi quruq shoxlarig'a yel bilan allaqayoqlarg'a uchub ketkan boyqushlar to'pi ham kelib qo'na boshladilar*. Adib "Xo'ja Maoz" qabristonini tasvirlashda qabristondagi ikki tup ulkan chinorga nisbatan **iskelet** [3] (skelet) leksemasini qo'llagan. Bundan tashqari romanda **zol** (zal), **to'fancha** (to'pponcha) kabi so'zlar ham qo'llanilgan.

b) Eski o'zbek tilidan va tilning yangi so'z yasash imkoniyatlari orqali hosil

qilingan leksemalar va so'z birikmalari: masalan, **yangarishg'a** (yangilanishga), **hikoyachiliq**, **ko'z ostidan qaramoq** (zimdan kuzatmoq), **izg'iriy** (izg'irin), **to'qinmoq** (urinmoq), **so'qib qolmoq** (bosib qolmoq), **yonchiq** (cho'ntak, hamyon), **oq kun** (kun yorug'i), **is tekmoq** (isdan zaharlanmoq) va shu kabi so'z va so'z birikmalari o'zbek tilining lug'at tarkibidagi so'zlardan yangi so'z va so'z birikmalari hosil qilingan ekanini ko'rish mumkin. Asarning "Qipchoqqa qirg'in" nimli faslida shunday jumlaning uchratish mumkin: *(Otabek) ... go'yo shu yirtqichlar dunyosidan yashiring'andek oq kundayoq to'shagiga yotib, ko'rpa-siga burkanib oldi* [4]. Muallif o'zbek tili leksikasini **oq kun** so'z birikmasi orqali *kun yorug'ida, kunduzi bo'lishiga qaramasdan* ma'nolarini anglatuvchi o'ziga xos yangi so'z bilan boyitishga harakat qilgan.

d) Arab va fors tilidan olingan o'zlashmalar: hayya alalfalah (najotga

shoshilinglar), **sioyat** (chaqimchilik), **mashvarat** (kengash), **ofiyat** (tinchlik), **mutaasir** (ta'sirlangan), **muvofigutaab** (ta'bga muvofiq, mos), **hoziq** (biluvchi), **chip** (g'ov), **raoyo** (xalq), **baxshish** (marhamat, karam), **bog'iy** (isyonchi), **e'timod** (ishonch), **istig'no** (bee'tiborlik), **xun olud** (qonga belangan), **varta** (girdob), **masohat** (yuza, sath), **addoi** (duo qiluvchi), **aduv** (dushman, yov), **badkirdor** (yomon niyatli), **zafaryob** (g'olib), **zolona** (uzoq vaqt yashamoq), **doruni dil** (chin dildan), **xotiri otir** (dili ravshan), **azimai qaviya** (kuchli va qudratli) va shu kabilar. Bundan ko'rinadiki, o'tgan asrning boshlarida o'zbek tilida arab, fors va tojik tillaridan o'zlashgan so'z va so'z birikmalari keng qo'llanilgan ekanidan dalolat beradi.

e) Tasviriy vositalardan foydalanish. Adib asar qahramonlarini tavsiflashda

emotsional baholash elementlaridan foydalangan holda ijobiy, neytral yoki salbiy bo'yoqdorlikka ega so'z va iboralarni qo'llaydi. Misol uchun, asarning asosiy qahramonlaridan biri O'zbek oyimni adib shunday tasvirlaydi: *"O'zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabi'atlik bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz erigagina emas, Toshkand xotinlarig'a ham om edi"* [5] singari tasviriy vositalar orqali O'zbek oyimning tabiati, uning fulq-atvori va uydan tutgan o'rni xususida kitobxonni bir qadar tanishtirib o'tadi. Muallif asar personajlarining umumiy fizionomiyasi haqida o'quvchida to'laqonli va aniq tasavvur hosil qilish maqsadida tasviriy ifodalardan mohirona foydalanib, uning asar syujetidagi konfliktning ochish maqsadida o'rni bilan, kompozitsiya davomida qo'shimcha ma'lumot keltiradi. Masalan, Otabek savdo vaji bilan Marg'ilonda ekanida uni ko'rgani kelgan Rahmat va Homidlar bilan bo'lgan suhbatda xizmatkori Hasanali obrazini quyidagicha tasvirlaydi: *"... oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzlik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik ..."* [6] **Vulgarizmlar**. Muallif asardagi salbiy obrazlarning ichki dunyosini fosh etishda adabiy tilda mavjud bo'lgan odobdan tashqari, qo'pol va dag'al so'z va iboralardan ham foydalangan. Masalan, adib asarda salbiy personajlardan biri Xushro'yning tilidan *"Itidan bo'lg'an qurbonlikka yaramas!"* iborasi,

Mutal o'g'rining nutqida **kashal** (chatoq), **do'ndiqcha**, **go'l to'ra**, **xumsa** (*xunasa* so'zidan, yaramas), **mochaxar** (*mochag'ar* so'zning buzilgan shakli, it yoki eshakning urg'ochisi), **zang'ar** (*buzuq yo'lga kirgan, suyug'oyoq ayol; xotini buzuvchi kimsa* [7]) va shu kabi vulgar soz' va iboralardan foydalanganini ko'rish mumkin.

f) Sinonimlarning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Muayyan

leksemalar semantik tuzilishida tashqi sema sifatida kelgan ayrim semalarni faol qo'llash yordamida mazkur leksemadan yangicha sinonimik paradigma hosil qilinadi. Misol uchun, "O'zingni **teja** qizim, o'rningni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim.[8] jumlasida *ehtiyotlamoq* ma'nosida **teja** leksemasi, "To'ybeka, Kumushning choyini oqlab ber-chi." jumlasida **ber-chi** so'zi (*yangilab ber* ma'nosida) oqlab bermoq fe'l birikmasi qo'llaniladi.

g) Kitobxonda kerakli emotsional holatni yuza keltirish uchun sinonimik

qatordan foydalanish. Asarning "Kutilmagan baxt" nomli faslida shunday jumla keltiriladi: "Titrag'an va qovjirag'an bir tovushda: – Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek." [9] Jumla tarkibidagi **titrag'an**, **qovjirag'an** leksemalari sinonimik paradigmani yuzaga keltirib, o'quvchi his-tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda **qovjirag'an** so'zi **hayajonlangan** ma'nosida qo'llanilgan.

Yana bir misolni olaylik: "Bu xabarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni, hollarni, harakatlarni... barchasini birma-bir ko'nglidan kechirar edi." [10] Garchi, jumla tarkibidagi **o'zgarish**, **hol**, **harakat** leksemalari kontekstdan ajratilgan holda o'zaro sinonim bo'lmasa-da, ayni shu gapda bir-biriga sinonimik paradigma bo'lib kelmoqda. Boshqa parchada, "Hasanalining ko'zlari tag'in uyqug'a ketar, qarshisig'a Otabek bilan **ko'hlik**, **ko'rkam** bir qiz kelib chiqar va ikkisi unga qarab iljayishar edilar." [11] jumlasini keltirilgan bo'lib, **ko'hlik** va **ko'rkam** so'zlari ham ma'noni kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan. "Otabekdagi **sukut**, **xayol**, **fikr** kabi holatlarni **yulib**, **yulqib** olib, ular o'rniga chechak donalari ekib, umid suvlari sepmakchi edi." [12] Bir tomondan, jumla tarkibidagi **sukut**, **xayol**, **fikr** so'zlari sinonimik qatorni tashkil etsa, boshqa tomondan, **yulib**, **yulqib** leksemalari ham leksemadan anglashilgan ma'noni kuchayib borish tartibini ko'rsatadi. Misol tariqasida berilgan **sukut**, **xayol** va **fikr** leksemalarida integral (birlashtiruvchi, umumiy) va differensial (farqlovchi) xususiyatlar kuzatiladi. Muayyan semantik maydondagi sememelarning birlashtiruvchi (umumiy) ma'no insondagi jimlik hukm surgan holat hisoblanadi. Ularning farqli jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

sukut – insondagi jimlik hukm surgan holat, so'zsizlik holati;

xayol – jimlik holati bilan birga fikrlash jarayonining kechishi;

fikr – jimlik, biror narsa yoki hodisa haqida xayol surish, fikrlash.

Asarda **bilan** ko'makchisiga **birlan**, **bilan**, **ila**, **u**, **o'sha**, **shul**, **o'shal**, **ul**, **shu** kabi grammatik sinonimlarni ham uchratish mumkin.

Ellipsis hodisasining qo'llanilishi

Muayyan matn yoki nutq tarkibidagi sintaktik tuzilmadan biror bo'lakning yoki so'zning tushib qolishi natijasida o'ziga xos metonimiya yuzaga keladi. Tilshunoslikda bunday hodisaga nisbatan *ellipsis* (yun. – tushirib qoldirish) hodisasi deyiladi. "Ellipsis nutqda tushirib qoldirilib, matn yoki vaziyatdan ososngina anglashiladigan, fahmlab olinadigan bo'lakdir." [13] Qaratqich-qaralmish munosabatli birikmalarda qaralmish tushirib qoldirilgani sababli belgisiz qaratqich undan anglashilgan ma'noni o'ziga oladi. Masalan, *saroy tinch uyquda* [14] jumlasida *saroyning kishilari, aholisi* nazarda tutilgan. Quyidagi jumlada kitob muallifining ismi kitob o'rnida qo'llanilgan (*Otabek*) *Fuzuliy mutoalaasiga berildi* [15].

Sinekdoxadan foydalanish

M. Mirtojiyevning ta'kidlashicha, "sinekdoxa hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining o'zbek tilida uncha keng tarqalmagan ko'rinishlaridan biridir. Tilshunoslikda qayd etilishicha, so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlaridai biri butunni, ikkinchisi uning bo'lagini bildirishiga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirishidir. Ma'lumki, uni ayrim adabiyotlarda metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida qayd etadilar". [16] Romanda butun narsaning nomini uning qismi orqali ifodalash yoki aksincha qismni butun narsaning (predmetning) nomi bilan atashga doir misollarni uchratish mumkin. *Yoshliq ko'zlar ariq bo'yig'a tushib, nozik oyoqlar ariq bo'yi tomong'a harakatlandilar* [17]. Jumla tarkibidagi *ko'zlar* va *oyoqlar* leksemalari insonni anglatib kelmoqda.

Antiteza vositasining qo'llanilishi

Badiiy adabiyotda qo'llaniladigan leksik uslubiy vositalar asarga muhim va takrorlanmas badiiy-estetik joziba va ijodkor uslubini shakllantiruvchi emotsionallik baxsh etib qolmasdan, yozuvchining o'ziga xos tasvirlash uslubini namoyon etadigan omillardandir. "Antiteza grekcha so'z bo'lib, qarama-qarshi qo'yish ma'nosini bildiradi. Antitezadan ifodalilikni kuchaytirish uchun, qarama-qarshi tushunchalami, fikr, obraz, narsalami, shaxslaming xarakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa-hodisalaming daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlash uchun foydalaniladi." [18] Antiteza o'zbek badiiy adabiyotida tazod deb ham yuritiladi. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida antiteza barcha til sathlarida kuzatiladi. *"Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit* [19]. Mazkur qo'shma gap shaklidagi parchada *kiygiz ↔ gilam, bo'z ko'rpalar ↔ ipak va adras ko'rpalar, qora charog' ↔ sham, yengil tabi'atlik, serchaqchaq ↔ og'ir tabi'atlik* zidlov so'zlar va so'z birikmalari orqali o'ziga xos qarama-qarshilik yuzaga keltirilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy adabiyotda lisoniy hamda uslubiy vositalarning muhim xususiyati muallifning badiiy mahorati va real voqeylikni aniq va xolis yoritishdan iboratdir. A. Qodiriy XX-asrning boshlarida o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan ko'pgina arab, fors hamda tojik tillaridan o'zlashgan hamda o'sha davrning sodda xalqchil tilidan ancha uzoqlashgan murakkab lisoniy va uslubiy vositalar o'rniga xalqning so'zlashuv tiliga yaqin sodda va tushunarli so'z o'yinlaridan, o'zbek adabiy tilining samarali tasviriy imkoniyatlari bilan birga frazeologizm, dialektizm, turli stilistik uslublardan o'rinli foydalanib, roman qahramonlarining fikrlash dunyosi, xulq-atvori va asar voqea-hodisalarini kitobxon tasavvurida batafsil va yorqin gavlanashiga erisha olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z. Mahmudova.Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining milliy o'ziga xosligi:dis. ... filol. fan. nomzodi. – Toshkent, 1996. – 4 b.
2. A. Qodiriy "O'tkan kunlar". Sharq. T., – 2004. 322-bet.
3. O'sha asar. 222-bet.
4. O'sha asar. 291-bet.

5. A. Qodiriy “O’tkan kunlar”. Sharq. T., – 2004. 128-bet.
6. O’sha manbaa. 7-bet.
7. <https://uz.wiktionary.org/wiki/zang%CA%BBar> (Murojaat sanasi: 07.02.2025)
8. O’sha asar. 29-bet.
9. O’sha asar. 60-bet.
10. O’sha asar. 46-bet.
11. O’sha asar. 47-bet.
12. O’sha asar. 47-bet.
13. M. Mirtojiyev. O’zbek tili semasiologiyasi. Toshkent. Mumtoz so’z. 2010. 86-bet.
14. A. Qodiriy “O’tkan kunlar”. Sharq. T., – 2004. 21-bet.
15. O’sha asar. 150-bet.
16. M. Mirtojiyev. O’zbek tili semasiologiyasi. Toshkent. Mumtoz so’z. 2010. 103-bet.
17. A. Qodiriy “O’tkan kunlar”. Sharq. T., – 2004. 50-bet.
18. S. Sultonsaidova, O. Sharipova. O’zbek tili stilistikasi. O’quv qo’llanma. T., 2009. 65-bet.
19. A. Qodiriy “O’tkan kunlar”. Sharq. T., – 2004. 6-bet.